

Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda 01.09.2023 ga qadar Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishi ko'zlangan hujjatlarda quyidagilar ilgari surilgan.

- Ekologik va atrof-muhitga zarar yetkazish, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarni og'ir jinoyatlar toifasiga kiritish;

- Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarini kesishga qo'yilgan morotoriy talablarini buzganlik ma'muriy jarimalar miqdorini 5 barobarga oshirish. Bunda noqoqonuniy kesilgan daraxt o'rniga kompensatsiyaviy daraxt ko'chatlarini aynan daraxt kesilgan o'ringa ekish majburiyatini yuklash hamda yurudik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 100 barobaridan 300 barobarigacha bo'gan miqdorda moliyaviy jarimalar qo'llashni joriy etish [3]. Shu kabi bir nechta og'irlashtiruvchi normalar ishlab chiqilishi ko'zda tutiladi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, tabiat qancha sof bo'lishi, hayvonot va daraxtlar olamiga, balki insonlar uchun ham qanchalar muhim ekani ko'rinib turibdi. Yurtimizda olib borilayotgan bu muommolarning yechimlari izlanayotgani quvonarli holat o'zi aslida. Ilgari surilgan "Yashil makon" dasturi to'g'risida "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" raisi Narzullo Oblamurodovning "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusida shunday ta'kidlaydi; "Mamlakatimiz bo'ylab "Yashil makon" umummilliy harakatini samarali amalga oshirish uchun "Dolzarb 40 kunlik" e'lon qilindi. Bu shunchaki nomiga o'tkaziladigan bir tadbir yoki aksiya emas. Bu – natijasi kelgusi yuz yilliklarga tatiydigan ezgu harakat, O'zbekistonning ertasi uchun qayg'urib qilinayotgan chin ma'nodagi xayrli tashabbus "- deya aytib o'tganining o'ziyoq xalqimizning bu sohaga jiddiy kirishganligini ko'rsatib o'tuvchi isbotidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-y. –B.24.
2. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 31.05.2023. PF-81-son.
3. "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" 14- sonli PF.25.01.2023.

### **OILADA EKOLOGIK HUQUQIY TARBIYA BERISHDA OTA-ONALAR VA JAMOATCHILIKNING MUHIM VAZIFALARI**

*Burxonova Go'yoxon Gulomovna  
Central Asian Medical University*

Ekologik ta'lim va tarbiya orqali kishilarda, jumladan, yoshlarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo'lgan Yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, o'z o'lkasi va Vatanining ekologik tizimlari (ekotizimlari), ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonuniyatlari, undan kelib chiqadigan hususiyatlari, boyliklari, holati, kelajak istiqbollari, milliy, regional va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, Yer yuzasi atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid muammolarni anglash va ularning yechimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyasi, ularni tanlagan kasblarga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Hozirgi kunda zamon talabi asosida oilada ekologik huquqiy tarbiya berish, yangi innovatsiya va axborot texnologiyalarni qo'llash kelajakda yoshlarga ekologik muammolarni imkon qadar ijobiy hal etilishiga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisida so'zlagan nutqida, «Ma'lumki, har qaysi mamlakat, har qaysi xalq hayotida Shaxs – Oila – Jamiyat - Davlat degan tushuncha va

qadriyatlar hal qiluvchi o'rin tutadi. Jamiyatning birlamchi va asosiy bo'g'ini bo'lgan oilani esa muhtaram ayol siymosisiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi»1 - deb ta'kidlagan edi.

Xalqimizda yaxshi bir naql bor: «Atrof muhit tozaligi uyning ostonasidan boshlanadi». Har bir xonadonning sarishtaligi, obodligi uning ostonasida, ko'cha-kuy, hovli-joyini toza va saranjom tutishda bilinadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» deganlaridek, ota-onalar bolalarga tabiat in'om etgan yer va suvni asrab-avaylash, tuproq va havoni ifloslantirmaslik, o'simlik-yashillik olamini saqlash haqidagi o'g'itlarni doimiy ravishda singdirishlari va ularning hayot mezoniga aylantirishlari talab etiladi. Bolalarimizga, o'lkamiz uchun tobora qadrlil bo'lib borayotgan ichimlik suvidan tejab tergab foydalanish munosabatini shakllantirish ayniqsa, o'ta muhim masaladir.

Ekologik ta'lim tarbiya va mohiyati uning uch yo'nalishdagi tadqiqot qilish, o'rgatish va amalga joriy etish predmetida o'z aksini topadi:ekotizimlarni (tabiiy va antropogen o'zgargan) muhofaza qilish ekotizimlarning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish:buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida ham quyidagilar ta'kidlangan: "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati tog'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarining ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof muhitga zararli ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" deyilgan.

Shunday ekan,yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib,vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek yoshlarda boy ilmiy madaniy va ma'naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadryatlarga asoslangan ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakl va usullar asosida quyidagi ekologik- huquqiy ta'lim tarbiya talablariga e'tibor bersak maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) oilada farzandlarimizni tabiat go'zalliklaridan estetik zavq olish sevish ruhida tarbiyalash; 2) oilada ota-onaning g'amxo'rliigi va bevosita harakati asosida farzandlarimizning ekologik-huquqiy madaniyatini oshirish; 3) oilada farzandlarimizga tabiat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabat hamda insonning tabiatga ta'siri masalasini shakllantirish tushunchalari; 4) farzandlarimizga inson tabiatning bir bo'lagi ekanligi va barcha jamiya va tabiat qonunlariga amal qilishi lozimligini tushuntirish katta ahamiyatga ega.

Ekologik huquqiy tarbiya jarayonida talaba yoshlarimiz ko'proq olingan bilim va tushunchalar, ekologik huquqiy saviya, hamda boshqa mezonlar bilan bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan ayrim adabiyotlarda oilada huquqiy ekologikk tarbiya quyidagilarni o'zida ifoda etishi ko'rsatilgan:

- Talaba yoshlarimizga barcha tabiat boyliklari bo'lgan yer, yer osti boyliklari, suv, hayvonot, o'simliklar dunyosi, o'rmon va havo (atmosfera)dan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza etish lozimligini tushuntirish;
- Oilada o'quvchi yoshlarga ekologik huquqiy tafakkur va ekologik ongni xosil qilish, atrof muhitga nisbatan va tabiiy boyliklarga nisbatan mas'uliyatli bo'lishni ko'rsatish
- Talaba yoshlarga ekologikk o'zgarish, inqiroz va tahdidlarni oldindan ko'ra bilishligini kengroq mohiyatini uqtirish;
- Ota-onalar tomonidan yoshlar ongida tabiatga zarar yetkazmaslik, sodir etilgan huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlikni mavjudligini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Demak yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shilgan holda mazkur masala hali pedagog, tabiatshunos va huquqshunos kadrlarimiz oldida bir qator vazifalar turganligini etirof etishimiz lozimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 23.08. kunidagi xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, yosh avlid ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselekt yeg'ilishidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi 24.08.2019-yil.